

“TASDIQLAYMAN”

Andijon davlat universiteti rektori
A.S.Yuldashev

2017 y.



“Abituriyentlar arizasini elektron qabul qilish (bakalavriat) interaktiv xizmati reglamenti

1. Xizmat tarifi

1.1. Xizmat nomlanishi:

Qisqa nomi: Abituriyentlar arizasini elektron shaklda qabul qilish
Kengaytirilgan nomi: Universitet rasmiy sayti orqali “Abituriyentlar arizasini elektron qabul qilish (bakalavriat)”

1.2. Xizmat natijasi:

Arizachini universitetning bakalavriatiga kirish uchun arizasi qabul qilinganligi haqida xabardor qilish

1.3. Xizmat ko'rsatuvchi organlar:

- Andijon davlat universiteti

1.4. Huquqiy asoslari:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 20- iyundagi “Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 393-sonli qarori

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar:

O'rta yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega fuqarolar

1.6. Ariza berish muddatlari:

Abituriyentlardan arizalar qabul qilish belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi

1.7. Bajarish muddatlari:

3 (uch) ish kuni

2. Xizmatdan foydalanuvchilarga ma'lumot taqdim etish

2.1. Ma'lumot tarkibi va hajmi:

Mazkur xizmatdan foydalanish uchun murojaat qilgan har qanday foydalanuvchiga quyidagi axborot taqdim etiladi:

- Universitetning joylashgan joyi, ish tartibi haqidagi ma'lumot;
- xizmatdan foydalanish uchun talab etiladigan hujjatlar ro'yxati;
- ariza blankasini to'ldirish tartibi haqida ma'lumot;
- xizmatdan foydalanish muddatlari;
- xizmatning reglamenti mavjudligi to'g'risida ma'lumot

2.2. Batafsil ma'lumot olish:

Andijon davlat universiteti rasmiy veb sayti orqali

2.3. Xizmat ko'rsatish manzili haqida ma'lumot olish:

Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy

3. Ish vaqtlari va murojaat javoblarini kutish vaqtlari

3.1. Ish vaqtlari:

Qabul komissiyasi dushanba-shanba kuni soat 9⁰⁰ dan 17⁰⁰ga qadar faoliyat olib boradi.

3.2. Kutish shartlari:

3(uch) ish kuni

4. Xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Zarur bo'lgan hujjatlar:

- Rasm (3.5 x 4.5 hajmda; rangli; JPG, JPEG, PNG formatda; oq fonda; Photoshop yoki shunga o'xshash dasturlardan foydalanish ta'qiqlanadi);
 - ERI (elektron raqamli imzo);
 - Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsion raqami (IINFL).
- Quyidagi hujjatlarning skanerlangan nusxasi talab etiladi:
- O'rta maktabni tamomlaganlik haqidagi shahodatnoma (attestat) yoki o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasini tamomlaganligi haqidagi diplom;
 - harbiy guvohnoma (erkaklar uchun).

4.2. Xizmat to'lovi:

Bepul

4.3. Xizmat ko'rsatish bosqichlari:

Universitet rasmiy sayti orqali xizmat ko'rsatish bosqichlari:

1. Universitet rasmiy veb saytiga kiriladi;
2. "Interaktiv xizmatlar" bo'limidan "Abituriyentlar arizasini elektron qabul qilish (bakalavriat)" xizmati tanlanadi;
3. O'quv tili, ta'lim yo'nalishi va imtihon topshirish tili tanlanadi (kiritiladi) va hujjatlarning elektron nusxasi ilova qilinadi;
4. Arizachining shaxsiy identifikatsion raqami (PINFL) kiritiladi;
5. Ariza to'g'ri to'ldirilganligi tasdiqlanadi. "Elektron raqamli imzo yuborish" funksiyasi tanlanadi va ariza yuboriladi.

4.4. Xizmat ko'rsatishning ichki idoraviy jarayoni:


1. Mas'ul xodim tomonidan murojaat qiluvchiga ariza qabul qilinganligi to'g'risidagi xabar yuboriladi;
2. Arizaga rad javobi berilsa, rad etish uchun asoslar murojaat qiluvchiga yuboriladi;
3. Arizachi hujjatlarning asl nusxasini elektron ariza qabul qilingandan keyin 5 kun ichida universitet qabul komissiyasiga topshirishi shart.

4.5. Rad etish sabablari:

Hujjatlar to'liq taqdim etilmagan bo'lsa

"KELISHILDI"

Axborot texnologiyalari markazi rahbari


v.v.b. N.Mirzaalimov

"01" 11 2017 y.